



## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING AHAMIYATI

Olimjonova Umida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti akademik litseyi  
o'quvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda turizm sohasining tutgan o'rni hamda ichki va tashqi turizmni keng targ'ib qilishdagi asosiy vazifalar yoritib berilgan. Shuningdek, bu kabi vazifalarni bajarishda innovatsion yondashuvlar asosida oqilona yechimlardan foydalanish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, turizm, taraqqiyot, milliy iqtisodiyot, turistik obyektlar, turistik firmalar, xususiy mulkchilik munosabatlari, turizm infratuzilmasi.

Ma'lumki, bugungi kunda har qaysi davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uchun turizm sohasining o'rni beqiyosdir. Turistik agentliklar sonining keskin miqdorda oshishi natijasida chet ellik fuqarolarning tashrif buyurishi yurtimizning iqtisodiyotiga keskin ta'sir etmoqda. Shuningdek, turizmni rivojlantirish natijasida mamlakatimizda aholi uchun keng sharoitlarni yaratish mumkin. Shu bilan birgalikda, mamlakat taraqqiyoti va mamlakatlar aro tashqi aloqalarni o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlanishicha, mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar ortasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zamanni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi mumkin. Juhonning ko'plab mamlakatlari shular qatorida O'zbekiston ham iqtisodiy o'sishda davom etmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston turizm sanoatida katta imkoniyatga ega davlatdir. Mamlakatimizda 4000 dan ortiq tarixiy obidalar va muzeylarimizda 2 mlndan ziyod qadimiy eksponatlar saqlanayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, Respublika bo'yicha jami 550 ta sayyohlik kompaniyasi tur operatorlari faoliyat yuritmoqda. Mintaqamizdagi tarixiy ob'yektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'naliishi bo'yicha sayyohlarga xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'naliishlarning 65 tasi tarixiy madaniy meros ob'yektlari, 30 tasi tabiiy rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashdirish turizm elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'naliishdir. Yurtimizda 50.000 dan ziyod o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglarda sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda. Bu raqamlar mamlakatda turizm sohasining jadal rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida



mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohaga aylanib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarning xilma xilligi tufayli nafaqat turistik korxonalar balki boshqa soha korxonalari ham qatnashib xalq xo'jaligi kompleksi rivojiga multiplikativ ta'sir etadigan omillardan biri sifatida turizm namoyon bo'ladi. Bundan tashqari turizm insonlarning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, insonlarga fan texnika taraqqiyoti jadal rivoji, mehnat intensivligi natijasida vujudga keladigan his-hayajon va psixologik salbiy ta'sirlarni kamaytirishda sezilarli ko'mak beradi. Ko'pgina mamlakatlardan farqli o'laroq turizm sohasi yetarlicha rivojlanmagan O'zbekistonda turizm industriyası rivoji pul tushumlari ko'payishi, ishsizlik darajasini pasaytirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirishning bir yo'nalishi sifatida davlat tomonidan tartibga solish jarayonlarini faollashtirish, turistik xizmatlar bozorini o'rganish, turistik ta'lim tizimini kengaytirish, muayyan mintaqalar rivojini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi. Respublikamizda jami 700 dan ortiq xususiy turistik firmalar mavjud bo'lib, ularning deyarli barchasi kichik va o'rta biznes sub'ektlariga tegishlidir. Ma'lumki, Respublikamizda turizmni rivojlantirish kontseptsiyasiga muvofiq «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi mamlakatimiz turizm sohasidagi xususiy mulkchilik munosabatlarini qaror toptirish va rivojlantirish bo'yicha bosh tashkilot hisoblanadi. Shu tufayli jami turistik firmalardagi ish jarayoni milliy kompaniya tomonidan nazorat qilib boriladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xususiy turistik korxonalarning mamlakatimiz milliy iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siriga halaqit beruvchi talaygina muammolar mavjud bo'lib, ular bevosita hukumatimiz tomonidan astasekinlik bilan bartaraf etib borilmoqda. O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm mintaqalariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqqa mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand - Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga qamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalari va 10 me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ining mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining o'rni beqiyosdir. Shu sababli davlatimiz rahbari va yuqori tashkilot vakillari yurtimizni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish uchun turizm sohasiga katta e'tibor qaratib, uni keng miqyosda targ'ib etish uchun katta miqdorda mablag' ajratmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Abdurovohidov, F.Qutlimurotov. - Turizm iqtisodi. - O'quv qo'llanma. TDIU, 2010 y. - 160 b.

2. Алиева, Г. И. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni / Г. И. Алиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 3-5. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44595/> (дата обращения: 06.02.2024)

3. Ulug'bek Valiyev, Omonjon Umarov, ||O'ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI||

4. Nasiba Muxammadovna Aslonova, —TURIZMNING MILLIY IQTISODIYOTIMIZGA TUTGAN O'RNI||

5. <https://moluch.ru/archive/158/44595/>

6.<https://fayllar.org/termiz-davlat-universiteti-it-isodiet-vaturizmfakuleteti.html? page =75>